

кэрўанға қосылған ҳалда Бухара қаласына жол алады. Арадан бирнеше мүддет өткеннен соң, Бухарадағы "Кўкалдош" медиресине тәлим ала баслайды. Оқуўда да зийреклиги, билими хәм үйренген өнери менен устазлар хәм теңлеслериниң хўрметине миясар болады.

Кенимех сөзиниң этимологиясына келсек:

Иран патшасының улы Шопур Туран усы үлкеде жасаған Мехрибону гөззалға ашық болады хәм оған үйленеди. Ашығы хўрметине Зарафшан дәрьясынан суў жолы - канал қаздырып, оған Кенимехр деп атама береді. Әсирлер даўамында Кенимехр сөзи өзгерислерге ушырап Кенимех деп аталып кеткен деген рәўият бар.

Екинши рәўиятта Мех Ата кәни деген мәни береді: "Кен" сөзи парсы тилинде "Дәрья тармағы яки канал хәм суў жолы, жап" деген мәниге ийе. Сол себебли, ол Кенимех деп аталып кеткен делинеди.

Үшинши рәўиятта "Кенимех" атамасы тил билими тәрәпинен анализленсе, "Кен" хәм "Мех" киби еки сөзден келип шыққан атама. Атаманың биринши буўынындағы "Кен" сөзи "арна, дәрья тармағы яки салма" мәнилерин аңлатқан. Екинши буўынындағы "Мех" бирикпеси негизинде "mex" яки "mug"

Әдебиятлар

1. "Заң газети", 199 (1005), 15.11.2006. Авторы: Серикбай Өзбек улы.
2. Топоров В. Миф. Ритуал. Символ. Образ: Исследование в области мифопоэтического. -М.: 1995.
3. Кобланова А. Казак соз этикету. -Алматы: 2001.

РЕЗЮМЕ

Мақолада Кенимех қозоқлари тарихининг тадиқ қилинишига шарҳлар берилиши билан бирга уларнинг тилидаги хусусиятлар ҳақида атрофлича сўз боради. Тадиқот объект сифатида Кенимех тумани қозоқлари тилидаги ўзига хос хусусиятлар атаб ўтилади. Мақолада қозоқ адабиётининг бебаҳо мерослари ва бой оғзаки ижоди кенг очиб бериледи. Шунингдек, қозоқ тилининг келажак авлодга соф ҳолида етказилиши муҳим аҳамияга эга эканлиги ҳақида ҳам фикр билдирилган.

РЕЗЮМЕ

В статье подробно исследуется история казахов Кенимехского района наряду с обзором об их языковых особенностях. Объект исследования - особенности языка казахов Кенимехского района. В статье раскрывается бесценное наследие казахской литературы и богатое устное творчество. Отмечено важное значение, чтобы казахский язык передавался следующему поколению в чистом виде.

SUMMARY

The article provides a detailed study of the history of the Kenimex Kazakhs, as well as features in their language. The object of research is the peculiarities of the language of the Kazakhs of Kenimex district. The article reveals the invaluable heritage of Kazakh literature and rich oral tradition. It is also important that the Kazakh language is passed on to the next generation in its purest form.

MATEMATIK TERMINLAR DERIVATSIYASINING LEKSIK-SEMANTIK USULI

O.A.Ruzmetova – doktorant
Urganch davlat universiteti

Tayanch soʻzlar: leksik derivatsiya, soʻz yasalishi, leksik-semantik usul, yasama soʻz, affiksatsiya, suffiksatsiya, prefiksatsiya.

Ключевые слова: лексическая деривация, словообразование, лексико-семантический метод, производное слово, аффиксация, суффиксация, приставка (префиксация).

Key words: lexical derivation, word formation, lexical-semantic method, derivative word, affixation, suffixation, prefix.

Leksik derivatsiya mexanizmlari turli tillarda turlichadir. Soʻz yasalishi alohida soha sifatida rivojlangan. "Soʻz yasalishi", tilshunoslikning alohida sohasi (boʻlimi) sifatida, soʻz yasash va u bilan bogʻliq birliklar, hodisalar haqidagi, umuman aytganda, soʻz yasash tizimi haqidagi taʼlimotdir[1]. Bundan tashqari manbalarda "Soʻz yasalishi" ga quyidagicha taʼrifni ham uchratish mumkin: "Soʻz yasash, umuman, qanday usul, qanday vosita bilan boʻlmasin, yangi soʻz hosil qilishdir. Soʻz yasalishi tilshunoslik fanining ayrim bir boʻlimi, mustaqil lingvistik soha, tarmoq boʻlib, u soʻzlarning yasashini, yangi soʻz hosil qilishning qonun-qoidalarini, modellarini, vositalarini, shu bilan bogʻliq holda, soʻzlarning strukturasi tekshiradi"[2]. Xuddi shunday mulohazalar boshqa bir qator manbalarda ham keltirilgan. Ushbu mulohazalarga umumiy qaraganda "Soʻz yasalishi" – qanday usul, qanday vosita bilan boʻlmasin, yangi soʻz hosil qilish yoki tilda mavjud boʻlgan lugʻaviy birliklar bazasida yangi soʻz hosil qilish imkoniyati sifatida tushunish mumkin.

Yasama soʻz shakllanishi bilan boʻliq boʻlgan derivatsiyaning barcha koʻrinishlari leksik derivatsiya tarzida talqin etiladi [3]. Asos qismdan maʼlum bir vosita yordamida u bilan mazmuniy bogʻliq boʻlgan yangi leksema hosil qilinishi leksik derivatsiya hisoblanadi.

Yasashga asos qism bilan yasalma mazmuniy mundarijasida umumiylik bilan oʻziga xoslik belgilari mavjud boʻladi. Har ikki qismda takrorlanayotgan sema ularning umumiylikni koʻrsatsa, denotativ semalarning boshqa-boshqaligi ularning oʻziga xosligini namoyon qiladi[4]. Masalan, "markaz" asosidan –iy yasovchi vosita yordamida markaziy leksemasini yasash mumkin. Bunda har ikkala "markaz" va "markaziy" soʻzlarida "markaz" soʻzi takrorlanadi va bu qism ifodalangan sema ularning mazmuniy bogʻliqligini va umumiylikni taʼminlagan.

Har bir til oʻzining derivatsion imkoniyati va resurslariga ega boʻladi va bu har xil tillarda deyarli oʻxshash yoki aksincha har bir tilning oʻziga xos xususiyatlariga ega boʻlishi ham mumkin. Har bir tilda leksik semantik usul mavjuddir. Leksik-semantik usul bilan soʻz yasash soʻz maʼnosining oʻzgarishi, maʼnoning koʻchishi orqali yangi maʼnoli soʻzning yuzaga kelishi boʻlib, semantik yoki leksik semantik usul yordamida soʻz yasash tarixiy taraqqiyot jarayonida tildagi ayrim maʼnolar orasidagi boʻlanishlarning yoʻqolib ketishi, soʻzning ayrim shakllarida yangi leksik maʼnoning yuzaga kelishi bilan bogʻliqdir. Masalan, "uch" soʻzining maʼnolarini tahlil qiladigan boʻlsak:

1. Oddiy natural son ma'nosida (Bir va ikki sonlarning yig'indisi uch bo'ladi);

2. Biror narsaning uchi (burchakning uchi);

3. Harakat ma'nosini bildiruvchi uchmoq fe'li (Kabutar, kabutar uzoqlarga uch!); "uch" so'zi uch xil o'rinda uch xil ma'noda kelgan.

Xuddi shunday turli o'rinlarda turlicha ma'no kasb etib keladigan so'zlarni ingliz tilida ham uchratish mumkin. Masalan, "point" so'zining ma'nolarini tahlil qilsak ushbu so'zning Longman Dictionary of Contemporary English (4th edition; 2005) [5] lug'atida quyidagicha ma'nolarini topsak bo'ladi:

1. Sonning butun qismini bildiruvchi belgi; (One kilogram equals two point two (= 2.2) pounds.)

2. Fikr, g'oya; (You made some interesting points in your speech)

3. Maqsad; (I see little point in discussing this further.)

4. Joy; (This is a good point from which to watch the race.)

5. Ochko, hisob; (The team lost a point as they had not completed the task on time.)

6. Xususiyat; (They would spend hours discussing the finer points of various cars.)

7. Kichik dog', nuqta; (The stars shone like points of light in the sky.)

8. Yo'nalish; (They were advancing on us from all points of the compass.)

9. Ko'rsatmoq; (She ordered and pointed to the door.)

10. Yo'nalmoq, yo'naltirmoq; (There were flashlights all around us, pointing in all directions.)

So'z yasashning eng sermahsul usullaridan hisoblangan affiksatsiya usuli, ham o'zbek, ham ingliz tilida faol usuldur. Affiksatsiya usuli o'z ichiga prefiks hamda suffiks kabi so'z yasovchi qo'shimchalarni oladi. Affiksatsiya usulida yasama so'zlarning semantik o'zgarishlari vujudga keladi.

So'z yasashi tarkibi so'zning morfemik tarkibi bilan uzviy bog'liqdir. Unda har bir o'zak hamda affiks morfemaning yangi so'zga xos jihatlari mavjud ekanligini ko'rsatadi. So'z yasash tarkibi so'zning morfemik tarkibidan farq qiladi. Morfemik tarkibda qismlar, ya'ni morfemalar ikki va undan ortiq bo'lishi mumkin. So'z yasash tarkibida esa faqat ikki qism bo'ladi, ya'ni yasovchi asos va yasovchi vosita (affiks)[6].

O'zbek tilida affiksatsiya usuli bilan so'z yasashining aynan suffikslar bilan yasash turi keng tarqalgan bo'lib, bu holatni matematik terminlar yasashi tahlilida ham sezish mumkin. Ba'zi affikslar bir xil ma'nodagi, ba'zilari esa turli ma'nodagi so'zlar yasaydi. Masalan, -chi affiksi bir necha xil ma'nodagi otlar yasaydi, matematika sohasiga oid terminlar orasida asosan quyidagi kabi so'zlarda uchratsak:

- O'smoq – o'suvchi;

- Pasaymoq – pasayuvchi;

lekin, odatda matematika sohasiga oid bo'lmagan boshqa so'zlarda bu suffiks shaxs oti yasovchi qo'shimcha sifatida ishlatiladi:

- Ishlamok – ishchi;

- O'qitmoq – o'qituvchi;

kabi so'zlarda shaxs oti yasashga xizmat qilgan.

Xuddi shu misollarni ingliz tilida tahlil qiladigan bo'lsak:

- Increase – increasing;

- Decrease – decreasing;

Shaxs oti yasovchi sifatida esa ingliz tilida –er suffiksini uchratishimiz mumkin:

- Work – worker;

- Teach – teacher;

Ingliz tilidagi ushbu –er suffiksi ham faqatgina shaxs oti yasovchi emas, balki narsa buyum so'zlarini yasashda ham ishlatiladi:

- Open – opener;

- Grate – grater;

Matematika sohasiga oid terminlarning yasashida prefikslar ham o'ziga xos ahamiyatga egadir. Lekin odatda prefikslar yordamida yasama so'z hosil qilish kam umum hisoblanadi. Demak, prefikslar kam mahsul affikslar deb qaraladi.

Ma'lumki, so'z yasash asosidan anglashilgan narsa yoki belgining inkorini bildiruvchi so'zlar hozirgi o'zbek tilida juda ko'p miqdorni tashkil etadi. Bunday so'zlar –siz suffiksi va be-, no- prefikslari yordamida yasaladi. Bu affikslar inkor ma'nosi bilan umumiylikka ega bo'lsa ham, ulardan har biri o'ziga xos farqli belgi-xususiyatga ham ega. Inkor ma'nosiga ega bo'lgan –siz va be- affikslari, asosan otlardan sifat yasaydi, no- affiksi esa, aksincha, asosan, sifatlardan sifat yasaydi[7].

- Hisob – hisobsiz;

- Hisob – behisob;

- Aniq – noaniq;

- Ma'lum – noma'lum;

Aksincha ingliz tilida prefikslar vositasida so'z yasash suffiksatsiyaga ko'ra keng tarqalgan. Ingliz tilida inkor ma'no beruvchi –dis, -de, -mis, -anti kabi bir qator prefikslar so'z yasash uchun ishlatiladi.

- Derivativa – antiderivative;

- Logarithm – antilogarithm;

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'zbek tili va ingliz tilida ham suffiksatsiya va prefiksatsiya vositasida yasama so'zlar hosil qilinadi. O'zbek va ingliz tillaridagi so'z yasovchi affikslarni qiyoslab o'rganish, ushbu tillarning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'rganishga imkon beradi.

Adabiyotlar

1. Hojiyev A "O'zbek tili so'z yasashi tizimi", Oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlari o'qituvchi va talabalari uchun qo'llanma. O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. –Toshkent: 2007. 6-b.

2. G'ulomov A "So'z yasashi. O'zbek tili grammatikasi". –Toshkent: 1975. 7-b

3. Paluanova X.D "Ingliz, rus va qoraqalpoq tillarida ekologik terminlarining derivatsion-semantik prinsiplari". Doktorlik dissertatsiyasi. –Toshkent: 2016. 105-b.

4. Aliyeva Sh.A "Tilning turli sath birliklari transformatsiyasi va derivatsiyasi", Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Farg'ona: 2019. 16-b.

5. Longman Dictionary of Contemporary English (4th edition; 2005)

6. O'zbek til praktikumi. (1-qism) –Toshkent: 2005. 85-b.

7. Hojiyev A "O'zbek tili so'z yasashi tizimi", Oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlari o'qituvchi va talabalari uchun qo'llanma. O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. –Toshkent: 2007. 130-b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada matematika sohasiga oid ba'zi terminlar derivatsiyasining leksik-semantik usuli haqida so'z yuritiladi va ularning o'zbek va ingliz tillaridagi leksik-semantik usulda yasashi qiyosiy tahlili muhokama qilinadi.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматривается лексико-семантический метод образования некоторых терминов в области математики и обсуждается их сравнительный анализ лексико-семантического метода образования слов в узбекском и английском языках.

SUMMARY

The article discusses the lexical-semantic method of forming some terms in the field of mathematics and discusses their comparative analysis of the lexical-semantic method of forming words in the Uzbek and English languages.